



## “Involta” Ilmiy Jurnalni

Vebsayt: <https://involta.uz/>

### MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARDA MEHNAT TARBIYASI HAMDA ULARNING MEHNATINI TASHKIL ETISHDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISH

Otaboyava Dilshoda Sa’dulla qizi

Jizzax davlat pedagogika instituti “Maktabgacha ta’lim” yo’nalishi 3- bosqich talabasi.

**“Mehnatdan kelsa boylik- turmush bo’lar chiroylik”**

(O‘zbek xalq maqoli)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda mehnat tarbiyasini rivojlantirish, hamda ularning mehnatini tashkil etishda didaktik o‘yinlardan foydalanish keltirilib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** Mehnat, didaktik o‘yinlar, komil inson, an’analar, urf –odatlar, oila, ustoz-shogird, jamoa mehnati, mehnat qurollari.

Komil inson g‘oyasi – ham milliy, ham umumbashariy mohiyatga ega bo‘lgan, odamzotga xos eng yuksak ma’naviy va jismoniy barkamollikni mujassam etgan, uni hamisha ezgulikka undaydigan oliyjanob g‘oyadir. Qadimdan o‘zbek xalqi butun olamga donaligi, tadbirkorligi, mehnatsevarligi bilan nom chiqargan. O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimov – “Asrlar davomida aql zakovati ila bunyod etgan boy ma’naviyati tuqayli xalqimiz mag‘rur yashadi, mehnat qildi, doimo hurriyat va erk sari intildi. Ana shu

milliy g'urur bugungi istiqbolimizning poydevoridir", deb ta'kidlaganlari bejiz emas. Xalqimizning, mustaqil O'zbekistonning kelajagi buyuk, istiqbolida ulug' ishlar, zafarlar, g'alabalar kutmoqda. Shunday ekan, mana shu g'alaba va yutuqlarga erishishimizning kaliti kelajak avlod qo'lida hamda ularning ta'lim – tarbiyasiga bog'liqdir.

Mehnat insonni maqsadga yo'naltirilgan faoliyati bo'lib, hayot kechirishning asosiy shartidir. Mehnat tufayli inson o'zining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini amalga oshiradi. Insonning o'zi esa mehnatkash bo'lib, u tufayli o'zining iste'dodi, qobiliyati, layoqatini namoyon qiladi. Mehnat jarayonida insonning dunyoqarashi kengayib, bilim saviyasi ortadi, o'z – o'zini jismoniy va ma'naviy jihatdan shakllantirib boradi.

Mehnat an'alarining tarbiyaviy ahamiyatini unutmaslik lozim. Chunki mehnatga munosabatni qaror toptirish yosh avlod tarbiyasining asosi hisoblanadi. Mehnat an'alarining ta'lim asosida yoshlarni hayotga, ijtimoiy mehnat faoliyatida ishtirok etishga tayyorlash ham muhim rol o'ynaydi. Chunki mehnat an'alarida zamirida shaxsning axloqiy sifatlari – mehnatsevarlik, yerga va tabiatga muhabbat, suvni isrof etmaslik, saxiylik, qahramonlik, mehnat baxt keltirishini qaror toptiradi. Bolalarni mehnatga muhabbat qo'yib o'sishida oiladagi ijtimoiy muhit juda katta rol o'ynaydi. Odatda qizlar uy xo'jaligida onaga yordam berishgan, ukalariga qaragan, uyni sarishta qilishib, tikish-bichishni o'rganishgan. O'g'il bolalar esa ekin ekish, uni parvarishlash, yig'ish, yanchish, hayvonlarni boqish kabi yumushlarni bajarishgan. O'zbek xalqi azal - azaldan kasb – hunari, mehnatsevarligi, halol va pokligi bilan dunyo miqyosida tanilib kelmoqda. Xalqimizning zargarlik, kulolchilik, bog'bonlik, tikuvchilik, do'ppido'zlik, etikdo'zlik, sondiqozlik, beshiksozlik, ganchkorlik va boshqa yuzlab hunar mahsulotlari o'zining betakrorligi, go'zalligi, maftunkorligi bilan dunyo xalqlarini lol qoldirib kelmoqda.

Oilada ota – onaning ham farzand oldidagi asosiy burchlaridan biri unga kasb – hunar o'rgatishdan iboratdir. Mehnat shaxsni har tomonlama kamol toptirishning asosiy omilidir. Shuning uchun ham har bir bola maktabgacha ta'lim yoshidan boshlab mehnat jarayonida ishtirok etishi kerak. Bolalar bog'chasida, oilada bajariladigan, murakkab bo'lmagan har bir topshiriq bolaning kundalik vazifasiga aylanishi lozim. Bola mehnatning ahamiyatini, mohiyatini tushunib yetishi uchun tarbiyachi kattalar mehnati, bolalarning o'zlari bajaradigan

mehnat turlarini kuzatish bo'yicha ekskursiyalar uyushtiradi. Mehnat bolalardan diqqat, o'tkir zehnilik, topqirlik, ijodkorlik qobiliyatlarini egallashni talab qiladi. Mehnat jarayonida bolalar qog'ozlarni buklash, shakllarni qirqib olish kabi harakatlarni bajaradilar va bir qancha yangi atamalar bilan o'z bilimlarini boyitadilar. Bu jarayon bolalarni nutqini yangi so'zlar bilan boyitadi.

Maktabgacha yoshidagi bolalarga mehnat tarbiyasi jarayoni maktabgacha ta'lim muassasalarida ikki xil yo'nalishda amalga oshiriladi:

1. Bolalarni o'zlarini mehnatga o'rgatish.
2. Kattalar mehnati bilan tanishtirish.

Mehnat qilish muntazam ravishda bo'lib, unda hamisha bolalar ishtirok etsa, kattalar mehnati bilan tanishtirib borilsa, u tarbiya vositasiga aylanib boradi. Mehnat tarbiyasi yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning muhim tomonlaridan biridir. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar mehnatning asosiy turlari – bu maishiy – xo'jalik mehnati, tabiatdagi mehnat bo'lib, uni tashkil etish shakllari esa 1- topshiriq, 2-navbatchilik, 3-bolalarning jamoa mehnati hisoblanadi. Bolalar mehnatini tashkil etishda didaktik o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki o'yin jarayonida bolalar tabiat obektlari va uning mavsumiy o'zgarishlari haqidagi tasavvurlarini aniqlaydilar, mustahkamlaydilar, kengaytiradilar. Didaktik o'yinlar- sayohat bolalarning kognitiv faolligini oshirishning samarali usullaridan biridir. Eksperimental faoliyatda didaktik o'yin- bolalarning atrof muhitga kognitiv qiziqishini shakllantirishga yordam beradi va asosiy aqliy jarayonlarni kuzatishni, fikrlashni rivojlantiradi. Quyida didaktik o'yinlarga misollar keltiramiz: “Bu nima?”, “Kim nima yeydi?”, “Bolalar shoxchada”, “Men bajara olaman”, “Ko'rsatish uchun biror narsani top”, “Avval nima-keyin nima”, “Sehrli poyezd”, “Qachon bo'ladi?”, “Stol ustida ko'rsat” va shu kabi turli xil didaktik oyinlardan foydalanib mehnat jarayonini tashkil etsak, bolalarda mehnatga bo'lgan qiziqishni yanada oshirgan bo'lar edik.

Mehnat inson hayotini go'zallashtiradi, ruhini pokiza, aqlini teran qiladi. Mehnat orqali inson komillikka erishadi. Shuning uchun bolalarni tarbiyalashning hozirgi zamon talablariga mos ravishda olib borish lozim, binobarin har tomonlama mukammal tarzda singdirilgan bilim, tarbiya yosh go'dak qalbida, ongida muhrlanib qoladi, ezgu samaralar beradi. Buning uchun

tarbiyachilar barkamol, ma'nan yetuk, uddaburon, har tomonlama hozirjavob, mehribon bo'lishlari kerak. Yoshlarni tarbiyalash sohasida sabr matonat, chidam va qunt bilan ish olib borishlari lozim. Shundagina vatanparvar, mehnatsevar, mehribon insonlarni tarbiyalay olamiz

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Karimov I.A. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida". –T.: "O'zbekiston". 2011.
2. Karimov I.A.. "Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch" Toshkent. 2008y.
3. Yusupova P. "Maktabgacha tarbiya pedagogikasi" T. 1995 y.
4. F.Qodirov, Sh.Toshpo'latova, M.A'zamova "Maktabgacha pedagogika" T. "Ilm-ziyo", 2019
5. Bondarenko A.K. "Bolalar bog'chasida didaktik o'yinlar"
- 6.